

**AGROKMASTERLAR HUDUDINI TASHKIL  
ETISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**Sattorov Shahzod Yarashovich**

*TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti*

*Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari kafedrasi dotsent v.b.*

*E-mail: [shsattorov1993@mail.ru](mailto:shsattorov1993@mail.ru)*

**Sulaymonov Mirjon Valijonovich**

*Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari kafedrasi doktoranti*

**Ochilov Askar Boymurodovich**

*Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari kafedrasi tadqiqotchisi*

**Jo'raqulov Fazliddin Faxriddinovich**

*Geodeziya va geoinformatika ta'lim yo'nalishi talabasi.*

**Teshayev Hasan Murtazoyevich**

*Geodeziya va geoinformatika ta'lim yo'nalishi talabasi.*

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi agroklasterlar hududini tashkil etishning nazariy masalalari, yer munosabatlarni bozor sharoitiga moslash, yer mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va modernizatsiyalash bo'yicha ma'lum tadbirlarni amalga oshirib kelinmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy o'zgartirishlari, o'z navbatida yer islohotlari o'tkazishni zaruriyati to'g'risida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Yer uchastkasi, agroklaster, hudud, raqamlashtirish, integratsion tizimlar, yer munosabatlari, yer resurslar, elektron dastur.

Yer resurslarini boshqarish – bu yer resurslariga jamiyat va davlatning yer resurslarini foydalanishda ularning samaradorligini oshirish uchun muntazam, ongli va aniqmaqsadga qaratilgan ta'sir ko'rsatishidir. Yer resurslarini boshqarish esa ulardan foydalanishni rejalashtirish, tashkillashtirish, tartibga solish va nazorat qilishdan iborat bo'lishi kerak. Yer resurslarini boshqarishda quyidagi yo'nalishlar mavjud:

- Siyosiy yer resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha davlatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ekologik vazifalarini bajarilishini ta'minlash. Ma'muriy boshqarish esa yer resurslarini boshqarish omil korligini aniqlash, o'zaro muvofiqlashtirilgan vazifalarni va ularni bajarishni tashkil etish, davlat boshqaruvi va mahalliy organlar tizimini shakllantirish;

- Huquqiy - qonuniy hujjatlarda belgilangan huquqiy me'yorlar asosida yerni saqlash va oqilona foydalanish;

- Ilmiylik - fan-texnika taraqqiyoti erishgan yutuqlarni hisobga olib yer resurslarini boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarini ishlab chiqish;

- Iqtisodiy - yer resurslaridan samarali foydalanish shartlarini belgilash;

- Tashkiliy - texnologik - iqtisodiy, ijtimoiy rag‘batlar va yer resurslarini asrash hamda ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish.

Agrar islohotlar – davlatning yerga mulkchilik munosabatlari va yerda xo‘jalik yuritish usullarini o‘zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlari majmui. Dastlab Agrar islohotlar konsepsiysi maqsad va vazifalari, yo‘nalishi, uni o‘tkazish bosqichlari aniqpab olinadi. Shunga asoslanib Agrar islohotlarni o‘tkazishning aniq chora-tadbirlari belgilanadi va ularni davlat amalgaa oshiradi. Tarixda Agrar islohotlarning 3 turini ko‘rish mumkin.

- Birinchisi – an’anaviy (natural, biqiq, qoloq) iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tishni ko‘zlovchi Agrar islohotlar Ular jumlasiga 19–20-asrlarda Yevropa, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi Agrar islohotlarni kiritish mumkin.

- Ikkinchisi – bozor xo‘jaligidan totalitar-rejali tuzumga o‘tishni ko‘zlagan va proletariat diktaturasi yordamida amalgaa oshirilgan Agrar islohotlar

- Uchinchisi – 90-yillar boshidan sobiq sotsialistik mamlakatlarda rejali iqtisodiyotdan qayta bozor munosabatlariga o‘tishga qaratilgan Agrar islohotlar Birinchi toifadagi islohotlar qishloq xo‘jaligida tovar ishlab chiqarishni o‘stirib, uni bozor iziga solishni mo‘ljallaydi.

Zamindorlar mulki bo‘lgan yer uni ekadiganlarga – dehqonlarga haq to‘lash sharti bilan yoki bepul beriladi, yerga dehqonlarning xususiy mulki o‘rnataladi. Dehqonlar tabaqalashib, ularning birqismi boylarga aylansa, boshqa qismi yollanmaishchilarga aylanadi. Agrar islohotlar qishloq xo‘jaligida mexanizatsiyani qo‘llab, bu sohada ishkuchini siqibchiqarishga olib keladi. Agrar islohotlar fermerlar sinfini shakllantirib, ularning mavqeini mustahkamlaydi. Ikkinci toifadagi Agrar islohotlar sobiq SSSR, Mongoliya, Sharqiy Yevropa davlatlarida va boshqa mamlakatlarda amalgaa oshirilgan. Bunday islohotlar natijasida yerto‘la-to‘kis yoki qisman xususiy mulkdorlar tasarrufidan chiqarilib, davlat mulkiga aylantiriladi, mustaqil dehqon xo‘jaligi o‘rniga davlat rejasiga binoan ishlovchi davlat xo‘jaligi va jamoa xo‘jaliklari barpo etiladi, ularni hukumat to‘la nazorat qiladi. Bu islohotlar qishloqdagi erkin bozor munosabatlarini yo‘qotadi, qishloq xo‘jaligida stimullar so‘naborganida nuinqirozgayu zo‘giradi, oziq-ovqat taqchilligi doimiy tus oladi. Uchinchi turdagи Agrar islohotlar davlatlashtirilgan qishloq xo‘jaligidan erkin bozor xo‘jaligiga o‘tishni ko‘zda tutadi, ular natijasida yerga davlat egaligi qisman yoki to‘la-to‘kis bekor qilinadi, yerni ijaraga ishlatishga ruxsat beriladi, davlat va jamoa xo‘jalinining mulki dehqonlar o‘rtasida bepul, qisman bepul, yohud haqini to‘lash sharti bilan taqsimlanadi. Dehqon (fermer) xo‘jaligi asosiy xo‘jalik turiga aylantiriladi, bu xo‘jalik bozor talabiga qarab va o‘z manfaatini ko‘zlab ish yuritadi. 20-asr davomida O‘zbekistonda Agrar islohotlarning so‘nggi ikki turi amalgaa oshirildi. Sho‘rolar davrida yer-suвлar ularning egalaridan tortib olinib, dehqonlarga berildi. Lekin tez orada ulardan yana tortib olinib davlat mulkiga aylantirildi. Bunday islohotlar 1917–22 yillarda o‘tkazildi. 1925–26 yillarda yer-suv islohoti o‘tkazildi. Bu islohotlarda

mahalliy boylarga qarashli yerlarning bir qismi yersizlarga bepul taqsimlab berildi. Bunday islohotlar natijasida bozorga ishlovchi mustaqil dehqon xo‘jaligi rivojlandi. Ammo bu uzoqqa bormadi, chunki 20-yillar islohoti qishloqni yoppasiga jamoalashtirish bilan yakunlandi. 1929–32 yillar mobaynida dehqon xo‘jaligi tamoman tugatilib, o‘rniga davlat va jamoa xo‘jaliklari barpo etildi, qishloq xo‘jaligi totalitar-rejali tizim girdobida qoldi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, yangi mazmunga ega bo‘lgan islohotlar boshlandi. Respublikada tub Agrar islohotlarning huquqiy asoslarini yaratadigan qonunlar qabul qilindi. Jumladan, "Yer to‘g‘risida" (20.06.1990), "O‘zbekistonda tadbirkorlik to‘g‘risida" (15.02.1991), "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylash-tirish to‘g‘risida" (19.11.1991), "Ijara to‘g‘risida" (19.11.1991), "Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida" (3.07.1992), "Xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari to‘g‘risida" (9.12.1992), "Yer solig‘i to‘g‘risida" (6.05.1993) va boshqa qonunlar hamda hukumat qarorlari qishloq xo‘jaligida ko‘p ukladli iqtisodiyot poydevorini yaratishga yo‘l ochdi. 1998-yil aprelda chiqilgan "Qishloq xo‘jaligi koopyerativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida", "Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida", "Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida" qonunlari va O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi qabul qilindi. Qishloqda mulkdorlar sin-fini shakllantirish siyosatdagi muhim yo‘nalishga aylandi. O‘zbekistonda bozor tizimini yaratishga qaratilgan yangi Asr. davomida davlat va jamoa xo‘jaliklari yerining bir qismi (jami 500 ming ga) aholiga tomorqa tarzida foydalanish uchun byerildi. Natijada 1996-yil aholining tomorqa xo‘jaligida yer 640 ming gani tashkil etdi. Yangi Agrar islohotlar ikkinchi yo‘nalishi – bu qishloqni fermerlashtirish, ya’ni davlat va jamoa xo‘jaliklari o‘rniga dehqon va fermer xo‘jaliklarini tashkil etishdan iborat. Yerga davlat mulki saqlangani holda yer xo‘jalik yuritish uchun myerosga o‘tish sharti bilan dehqonlarga berildi. 1996-yil jami 19,5 ming dehqon va fermer xo‘jaligi ishladi. Agrar islohotlarning uchinchi yo‘nalishi saqlanib qolgan davlat va jamoa xo‘jaliklarida dehqonlarning ulushbay mulkiga o‘tishdan iborat bo‘ldi. Xo‘jaliklardagi molmulk pulga chaqilib, u dehqonlarga ulush (pay) qilib byerildi. Dehqonlar umumiy mulkdagi ulushiga qarab haq oladigan bo‘ldilar. Agrar islohotlar O‘zbekistonning xususiyatini hisobga olgan holda yangi mulkchilik va bozorga mos xo‘jalik usullarini bunyod yetishyo‘nalishida bormoqda.

16.11.2021 yildagi "Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-14-sون Farmoni qabul qilindi. Farmon bilan Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish respublika komissiyasi tasdiqlandi. U paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish uchun talabgorlarning arizalarini ko‘rib chiqadi, ular faoliyatini tahlil qilib boradi, paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatida yuzaga kelayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo‘yicha Hukumatga takliflar kiritib boradi va investitsiya majburiyatlarini buzgan paxta-to‘qimachilik klasteri faoliyatini tugatish bo‘yicha tavsiyanoma beradi.

Paxta-to‘qimachilik klasterini tashkil etish Respublika komissiyasi xulosasiga asosan Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi. Yetishtiriladigan yoki

sotib olinadigan paxta xomashyosining kamida 50%ini o‘zida qaytaishlash quvvati (engkamidaip-kalava) mavjud bo‘lgan talabgorga boshqalarga nisbatan ustunlik beriladi. Yer uchastkasi paxta-to‘qimachilik klasteriga ijara huquqi asosida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ajratiladi. Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Paxta-to‘qimachilik klasterlari uyushmasi, tegishligiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi yoki viloyat hokimligi va paxta-to‘qimachilik klasterini tashkil qilish bo‘yicha talabgor o‘rtasida to‘rtomonlama bitim 30 yil muddatga tuziladi. Talabgor chetel investitsiyalari ishtirokidagi korxona yoki chetel yuridik shaxsi bo‘lgan taqdirda bitim 25 yilgacha bo‘lgan muddatga tuziladi[8].

Bir hududda (Qoraqalpog‘iston Respublikasi yoki tegishli viloyat) barcha paxta-to‘qimachilik klasterlariga fermer xo‘jaliklari bilan shartnomaga asosida faoliyat yuritishiga va fermer xo‘jaliklariga ushbu klasterlar bilan paxta xomashyosini etkazib berish bo‘yicha ixtiyoriy ravishda fuchers shartnomalarini tuzishga ruxsat beriladi.

To‘rt tomonlama bitimni bekor qilish quyidagi hollarda faqatgina sud tartibida amalga oshiriladi:

- tomonlarning hech bo‘lmaganda bittasi qarshi bo‘lgan taqdirda;
- tomonlarning bitimda ko‘zda tutilgan majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarmasligi (bundan fors-major holatlar va (yoki) o‘ziga bog‘liq bo‘lman sabablarga ko‘ra vujudga keladigan holatlar mustasno);
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarning 2/3 qismi paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan o‘zaro tuzilgan shartnomaga munosabatlari uch yil davomida to‘liq bajarilmay kelinganligini asoslovchi yozma murojaatlarining mavjudligi.

2022 yil hosilidan boshlab paxta xomashyosini yetishtiruvchi xo‘jalik sub’ektlari yer uchastkasining ijara shartnomasi bekor qilingan taqdirda, bo‘shagan yer uchastkasini qayta ijaraga berishda ushbu tumanda faoliyat yuritayotgan paxta-to‘qimachilik klasteri boshqa teng sharoitlarda ustun huquqqa ega bo‘ladi.

Ikki oy muddatda respublikada faoliyat yuritayotgan barcha paxta-to‘qimachilik klasterlari bilan to‘rt tomonlama bitim tuziladi. Ularga paxta xomashyosini chuqr qayta ishslash quvvatlarini ishga tushirish bo‘yicha investitsiya kiritish, isho‘rinlari yaratish va boshqa shartlar kiritiladi. 2022 yildan boshlab ularda har yili paxta-to‘qimachilik klasterlari bilan tuzilgan bitim, shu jumladan investitsiya majburiyatlarining bajarilishi, ularfaoliyatining samaradorlik va moliyaviy auditini amalga oshirish nazarda tutiladi. Bunda, yillik paxta xomashyosi hajmi 30 ming tonnadan yuqori bo‘lgan paxta-to‘qimachilik klasterlarida xalqaro auditorlik tashkilotlari jalb qilinadi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

- [1] Global Iqlim O'zgarishi O'zbekistonning Barqaror Rivojlanishiga Salbiy Ta'siri. SS Yarashovich, AJ Sayitkulovich, AI Hasan o'g'li... - O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ..., 2023
- [2] Sattorov Sh Y, Ahmadov S O, Akhtamov S A 2021 Mechanisms of rice growing and rice development in Uzbekistan online-conferences **5** 183
- [3] Sattorov S Y 2020 Use of aerocosmic methods and gis programs in construction of space data models of pastoral land Current scientific research in the modern world
- [4] Abduloev A M 2020 The use of advanced technologies in geodetic and geoinformatics Journal agro processing
- [5] Sattorov S. Y., Muhammadov Q., Bobojonov S. QURILISH JARAYONIDA ELEKTRON TAXEOMETRLARLARNI O 'RNI //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.
- [6] Сатторов Ш.Я, Мухаммадов К., Бобоҷонов С. ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИДА ЭЛЕКТРОН ТАХЕОМЕТРЛАРЛАННИ О ҶАРННИ //Эуро-Асиа Конференсес. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.
- [7] Сатторов Ш. Я. и др. USE OF AEROCOSMIC METHODS AND GIS PROGRAMS IN CONSTRUCTION OF SPACE DATA MODELS OF PASTURAL LAND //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 5-4. – С. 16-22.
- [8] Сатторов Ш. Я. ЯЙЛОВ ЕРЛАРИНИНГ ДЕГРАДАЦИЯ ОМИЛЛАРИ //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. – 2020. – №. SPECIAL ISSUE.
- [9] Абдуллоев, А. М. (2020). ГЕОДЕЗИК ВА ГЕОИНФОРМАТИК ИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ИЛФОР ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (SPECIAL ISSUE).
- [10] Muzaffarovich, Abdulloev Ashraf. "USE OF ADVANCED TECHNOLOGIES IN GEODESIC AND GEOFORMATIC WORK." Агропроцессинг SPECIAL (2020).
- [11] Ашраф, Мудасир, Ясс Худхейр Салал и С.М. Абдуллаев. «Интеллектуальный анализ образовательных данных с использованием базового (индивидуального) и ансамблевого подходов к обучению для прогнозирования успеваемости учащихся». Наука о данных . Спрингер, Сингапур, 2021. 15–24.
- [12] [Geoportal visualization of state cadastre objects:\(a case study from Uzbekistan\)](#) A Inamov, S Sattorov, A Dadabayev, A Narziyev - IOP Conference Series: Earth and Environmental , 2022
- [13] [Conventional and current approaches of urban mapping and geodetic base formulation for establishing demographic processes database: Tashkent, Uzbekistan](#) S Abdurakhmonov, M Khamidova, Y Romanyuk - E3S Web of Conferences, 2024

- [14] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. KARTAGA OLISHDA ZAMONAVIY METOD VA TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI //Ustozlar uchun. – 2024. – T. 58. – №. 2. – C. 105-109.
- [15] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. GEOMA'LUMOTLAR BAZASIDAGI MAVZULI QATLAMLARNING ATRIBUTIV JADVALLARINI ALGORITMGA BOG 'LASH //Ustozlar uchun. – 2024. – T. 58. – №. 2. – C. 99-104.
- [16] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. AEROKOSMIK METOD YORDAMIDA MELIORATIV MONITORING QILISH VA KARTASINI ISHLAB CHIQISH //Ustozlar uchun. – 2024. – T. 58. – №. 2. – C. 110-115.
- [17] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. DALA TADQIQOT NATIJALARINI GEOMA'LUMOTLAR BAZASIGA INTEGRATSIYALASH //Ustozlar uchun. – 2024. – T. 58. – №. 2. – C. 93-98.
- [18] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. KOSMOSURATLARDAN FOYDALANIB ELEKTRON RAQAMLI KARTALARNI YANGILASH //Journal of new century innovations. – 2024. – T. 54. – №. 4. – C. 14-18.